

SAYFI SAROYI HAYOTINING O'RGANILISHI VA ASARLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Suyunova Dilbar

**Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti Kafedra o'qituvchisi**

Habibullayev Asadullo Akmalovich

**Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20019066>**

Annotatsiya: Ushbu annotatsiyada XIV asrda yashab ijod qilgan va epik janr taraqqiyotida sezilarli iz qoldirgan ijodkor Sayfi Saroyi hayoti va ijodi haqida ma'lumot beriladi. Unda shoirning asarlari, tarjimalari haqida umumiy tushuncha berilib, uning hayoti to'liq yoritiladi. Ayniqsa, Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” asari chuqur o'rganilib, uning mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu annotatsiya orqali shoir ijodining o'zbek adabiyoti tarixidagi o'rni ochib beriladi.

Аннотация: В данной аннотации представлена информация о жизни и творчестве Sayfi Saroyi — поэта XIV века, оставившего значительный след в развитии эпического жанра. В работе даётся общее представление о его произведениях и переводах, а также подробно освещается его жизненный путь. Особое внимание уделяется произведению «Гулистан бит-тюрки», которое рассматривается с точки зрения содержания, идейной направленности и художественных особенностей. Данная аннотация раскрывает место творчества поэта в истории узбекской литературы.

Annotation: This annotation provides information about the life and works of Sayfi Saroyi, a 14th-century poet who made a significant contribution to the development of the epic genre. It gives a general overview of his works and translations, while also fully covering his life. Special attention is paid to his work “Gulistan bit-Turki,” which is analyzed in terms of its content, ideological direction, and artistic features. This annotation highlights the important place of the poet's творчество in the history of Uzbek literature.

Kalit so'zlar: Sayfi saroyi hayoti, ijodi, asarlari, tarjima asarlari, asarlarining badiiy xususiyatlar.

Ключевые слова: Жизнь, творчество, произведения, переводческие произведения, художественные особенности произведений Сайфи Сарои.

Key words: Life, творчество, works, translated works, artistic features of Sayfi Saroyi's works.

Kirish qism: O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida XIV asr muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda turkiy tilda ijod qilish an'analari tobora rivojlanib, adabiyot yangi bosqichga ko'tarildi. Ana shunday muhitda yetishib chiqqan iste'dodli shoir va tarjimonlardan biri Sayfi Saroyi bo'lib, u o'zining serqirra ijodi bilan adabiyot tarixida alohida o'rin egallaydi. Sayfi Saroyi nafaqat shoir, balki yetuk tarjimon sifatida ham mashhur bo'lib, Sharq adabiy merosini turkiy tilga olib kirishda muhim xizmat qilgan.

Shoir ijodida insonparvarlik, adolat, axloqiy poklik, halollik kabi umuminsoniy g'oyalar yetakchi o'rin tutadi. Uning asarlarida jamiyat hayoti, ijtimoiy munosabatlar hamda inson ruhiyati chuqur badiiy ifoda etilgan. Ayniqsa, uning mashhur “Guliston bit-turkiy” asari Saadi Shirazi ning “Guliston” asari asosida yaratilgan bo'lib, bu asar nafaqat tarjima, balki ijodiy qayta

ishlangan, milliy ruh bilan boyitilgan nodir adabiy yodgorlikdir. Unda didaktik ruh, hikmatli fikrlar, hayotiy saboqlar badiiy vositalar orqali ta’sirchan ifoda topgan. Shu bilan birga, Sayfi Saroyi epik janr taraqqiyotiga ham sezilarli hissa qo’shgan ijodkor sifatida e’tirof etiladi. Uning asarlarida syujet qurilishi, obrazlar tizimi, badiiy til va uslub o’ziga xoslik kasb etadi. Ushbu mavzuda Sayfi Saroyining hayoti, ijodi, asarlari, tarjima merosi hamda asarlarining badiiy xususiyatlari keng va chuqur tahlil qilinadi. Asosiy qism: Sayfi Saroyi XIV asr o’zbek dunyoviy adabiyotining yirik namoyandalardan biridir. U lirik va epik shoir, nosir va tarjimon sifatida o’zbek dunyoviy adabiyoti va o’zbek adabiy tili taraqqiyotiga muhim hissa qo’shgan. O’zbek va fors-tojik tillarida asar yozish an’anasining boshlovchilari sifatida Sayfi Saroyining ham tabarruk nomi turadi. Sayfi Saroyining hayoti va faoliyati haqida nihoyatda oz ma’lumotga egamiz. Sayfi Saroyi XIV asrning 20-yillari boshida tug’ilgan. U 1321- yil Qamishli qishlog’ida tug’ilgan. Uning quyidagi misralari muhim biografik ma’lumot beradi:

Qamishli yurt manim tug’gan elimdi,
Bilak g’urbatda keturgan bilamdi.
Kelib ulug’ saroyda she’r fidoyin,
Saroyning shoiri, elning gadoyin.

Demak, Sayfi “Qamishli yurt”da (bu hozirgi Xorazm viloyatining Sariqamish qishlog’i deb taxmin qilinadi) tug’iladi, bilim olish uchun g’urbatga — musofirlikka yuz tutadi. Saroyga kelib she’riyat bilan shug’ullanadi, she’riyat fidoyisiga aylanadi. Shoir taxallusini Saroydan oladi, Sayfi Saroyi nomi bilan shuhrat topadi. “Saroyning shoiri, elning gadoyi” misrasi shoir saroyda, hukmdorlar saroyida bo’lgan deb faraz qilishga yo’l laydi. Muhimi shundaki, qayerda bo’lmasin, shoir o’zini elning gadoyi hisoblaydi. Bu uning faoliyati va ijodiy yo’nalishining g’oyaviy-estetik mohiyatini belgilaydi. Sayfi Saroyining she’riyati ham, “Guliston” tarjimasini ham uning xalqparvar va ma’rifatparvar ijodkor bo’lganini ko’rsatadi. O’z davrining yetuk shoirlaridan bo’lgan Sayfi Saroyi badiiy asarning haqiqiylikiga, mazmuni va shaklining uyg’unligiga alohida e’tibor bergan, qobiliyatsiz, iddasiz shoirlarni qattiq tanqid qilgan:

Jahon shoirlari, ey gulshani bog’,
Kimi bulbula o’xshar, kimi zog’.
Kimi tuti bo’lib chinar shakarni,
Kimi lafzi bilan yutar zaharni.
Kimin suzalar mavzuni shirin,
Kimin o’qining tasirida terin.
Kimi zavq bilan ash’orim der,
Kimi yalva qilib maqtanib er.
Kimi mazmun ko’rub, lafzin tuzatir,
Kimi yozib buzub, san’at kuzatur.

Ushbu misralar orqali bilsak ham bo’ladi. Sayfi Saroyi fors-tojik, arab va boshqa tillarni mukammal bilgan. Shoirning taxallusidan ma’lum bo’ladiki, u Oltin O’rda davlatining poytaxti Saroy shahrida ijod qilgan. Vatan sevgisi, sog’inchi, yurt qayg’usi uning ijodiga dardli baytlarni olib kirdi. Shoirning “Yodgornoma” asarining muqaddimasida ana shu baytlar mavjud. Bu asar o’tgan asrning 60-yillarida Qo’qon shahri yaqinida topilgan. Bu asar “Suxayl va Guldursun” nomi bilan Sayfi Saroyi ijodidan o’in oladi. U Oltin O’rdadagi urushlar, nizolar oqibatida vatanni tark etadi. Shuningdek, Sayfi Saroyi Movarounnahrda va ma’lum vaqt Turkiyada ham istiqomat

qilgan. Sayfi Saroyining quyidagi she'ri uning tarjimai holiga oid ba'zi tomonlarni yoritishga yordam beradi:

Ilohi, bu qari miskin qulingni
Bag'ishla ko'rguzub to'g'ri yo'lingni.
Maliklar rasmidir dilshod qilmoq,
Qarisa qullarni ozod qilmoq.

Sayfi Saroyi bu she'rini Misrda - Mamluklar davlatida yashayotgan paytda yozgan bo'lib, hayotining so'nggi yillarini o'sha yerda o'tkazgan. Yuqorida aytganimizdek, Oltin O'rda tanazzulga yuz tuta boshlagan paytda Sayfi Saroyi Misrga ketgan. U mazkur she'ri orqali hukmdordan o'z yurtiga qaytish uchun ijozat so'ragan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Sayfi Saroyi shoh saroyidagi e'tiborli shaxslardan bo'lgan. Zamondosh shoirlarga she'riy javoblaridan ham Sayfi Saroyining o'z davridagi baland mavqei haqida xulosa chiqarish mumkin. Sayfi Saroyi vafot etgan yillari Misr Mamluklar davlatida Zohir Sayfiddin Barquq ikkinchi marta (birinchi marta 1382 y.) taxtga o'tirgan edi. 1396-yil vafot etgan. Misr turk davlatida o'zbek adabiyoti tarixidagi yirik hodisa sifatida Sayfi Saroyi va uning zamondoshlari adabiy merosini keltirish mumkin. Taxminimizcha, Sayfi Saroyining adabiy merosidan oz qismi yetib kelgan. Uning bir necha g'azallari, qasida, qit'a, ruboiylari (uchta forscha ruboiysi ham), "Suhayl va Guldursun" dostoni va Sa'diy Sheroziyning "Guliston" (1258-yili yozib tugallagan) asarining o'zbek tiliga qilgan erkin tarjimai yetib kelgan. Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari. Assrning yuzaga kelishi. Sayfi Saroyi ijodida "Guliston bit-turkiy" alohida o'rin tutadi. Zotan, bu asar Sayfi Saroyi ijodida katta hajmdagi asar bo'lish bilan birga, asarga olib kirgan o'z ijod namunalari XIV asr o'zbek nasrini va she'riyatini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tardi. Sayfi Saroyi Shayx Sa'diyning "Guliston" asarini tarjima qilgandan keyin, bu asariga "Guliston listoni bit-turkiy", ya'ni "Turkiy guliston" deb nom qo'ydi. Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari ilm ahliga birinchi marta 1915-yili ma'lum bo'lgan. Qolaversa, Sayfi Saroyining butun ijodining, jumladan, "Guliston bit-turkiy" asarining tarjimai va qo'lyozmasining tarixi bor. Endi o'sha tarix bilan qisqacha tanishamiz. 1915-yili Turkiyada nashr qilinadigan "Milliy tatabbular majmuasi" jurnalida venger olimi Tori Yozef Sa'diy "Guliston"ning turkiy tilga eski bir tarjimai Gollandiyadan topilgani to'g'risida xabar beradi. 1950-yili Amsterdamda tibbiyot tarixiga oid Xalqaro anjumanda ishtirok etgan professor Faridun Nafiz Uzluk Leyden universiteti kutubxonasida mazkur qo'lyozma bilan tanishib, fotonusxasini oladi va 1954-yili Anqarada kichik kirish so'z bilan qo'lyozmaning faksimilesini nashr ettiradi. Qo'lyozma yaxshi saqlangan, ammo xatolari ko'p. Faridun Nafiz Uzlukning aytishicha, qo'lyozma Sayfi Saroyining dastxatidir. Qo'lyozmaning birinchi sahifasida forscha va turkiycha yettita she'r bor. She'rlarning mualliflari ham, dastxatlari ham har xil. Birinchi to'rtlik Mahmud Gulistoniy degan shoirniki bo'lib, Iroqdan mag'lubiyatga uchrab qochib kelgan shahzoda Ahmadga bag'ishlangan. Qo'lyozmaning uchinchi sahifasida mazkur tarjimai Saroy shahridan Sayfi otlig kishi amir Tayxasga bag'ishlagani to'g'risida aytiladi. To'rtinchi sahifadan Sa'diy "Guliston"ning tarjimai boshlanadi. So'ng Sayfi Saroyi tarjimai to'xtatib, o'z she'rlarini qo'lyozmaga kiritadi. Keyin mazkur asarni tarjima qilish sabablarini bayon etadi. Qo'lyozmaning 11-14-sahifalarida Sayfi Saroyi 87 baytdan iborat she'rini keltiradi. Qo'lyozmaning oxirgi sahifasida Sayfi Saroyining 13 baytdan iborat she'ri keltirilgan bo'lib, tarjima tugallangan sana ko'rsatilgan. Bu she'rdan ma'lum bo'lishicha, "Guliston" tarjimai tamomlangan paytda (hijriy 793-yilning shavval oyi - milodiy 1391-yilning avgust oyi) Sayfi Saroyi 70 yoshda bo'lgan. "Guliston"ning tarjimai

to'g'risida 1955-yili yana bir turk olimi Abdulla Battol Taymas jiddiy maqola e'lon qildi va bu maqolasida asarning til xususiyatlarini tadqiq etdi. Maqola muallifining yozishicha, "Gulistoni bit-turkiy"ning tili qipchoq tilidir. Arab-fors so'zlariga imkon qadar kam o'rin berilgan, turkiy so'zlar ko'p ishlatilgan. Ba'zi so'zlar turli fonetik variantda beriladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, Misr turk davlatida turkiy qabila-urug'lar ko'p bo'lgan, ammo adabiy til mezonlari ishlab chiqilmagan, shu bois ma'lum so'zlarning talaffuzida beqarorlik hukm surgan. Asar Oltin O'rdadagi tarjima adabiyotlarining Misrdagi an'anaviy davomidir. Sayfi Saroyi "Gulistoni bit-turkiy"ni tarjima qilar ekan, birinchi navbatda, turkiy tilda so'zlashuvchi keng kitobxonlar ommasini nazarda tutdi. Shu bois asar tarjimasida arabcha va forscha so'zlar o'rniga ko'proq xalqona iboralardan foydalandi, eski o'zbekcha va qadimgi turkiycha so'zlardan istifoda etdi; xullas, tarjimani xalqqa yaqin tilda yaratdi. Ikkinchidan, Oltin O'rdadagi adabiy muhit ancha yuksalgan, Oltin O'rda davlatida turkiy adabiyotga va turkiy tilga e'tibor kuchaygan edi. Garchi bu davrdagi adabiyot turkiy adabiyot, til turkiy til deb yuritilsa ham, turkiy tilli xalqlar orasida alohida mavqe tutgan Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan asarlar til jihatdan har bir o'zbek kitobxoniga juda yaqin. Aynan "Gulistoni bit-turkiy"ning tili buni to'liq tasdiqlaydi. Qolaversa, Oltin O'rdada amal qilgan til ham chig'atoy tiliga juda yaqin, aniqroq qilib aytganda, O'rta Osiyo chig'atoy tilidan unumli foydalangan. Sa'diyning "Guliston"i keyingi asrlarda ham bir necha marta qator ijodkorlar tomonidan, jumladan, Ogahiy, mulla Murodxo'ja (1909) tarjima qilgan. "Gulistoni bit-turkiy"ning tuzilishi Shayx Sa'diyning "Guliston" asaridan farq qilmaydi. Har ikkalasida ham asar sakkiz bobdan iborat. Sa'diyning "Guliston"idagi boblar nomlari "Gulistoni bit-turkiy ga solishtirilganda, nisbatan asliyatga yaqinlik kuzatiladi. Sayfi Saroyi boblar nomlarini deyarli o'zgartirishsiz tarjima qilgan: Sa'diyda: Sayfi Saroyida:

- 1-bob. Dar siyrati podshohon Salotin siyrati ichinda turur
- 2-bob. Dar axloqi darveshon Fuqaro axloqi ichinda turur
- 3-bob. (Dar fazilati qanoat] Qanoat fazilati ichinda turur
- 4-bob. [Dar favoyidi xomushi] Sukut foydasi ichinda turur
- 5-bob. Dar ishq va javoni Ishq dag'i yigitlik sifati ichinda turur
- 6-bob. Dar zaif va piri Qariliq dag'i zaiflik sifati ichinda turur
- 7-bob. Dar ta'siri tarbiya Tarbiyat ta'siri ichinda turur
- 8-bob. Dar odobi suhbat Suhbat adablari ichinda turur

Sayfi Saroyi o'z asari debochasida Sa'diyning "Guliston"ini nima sababdan tarjima qilganini quyidagicha bayon etadi: "Iliq yoz kunlarida bir kun bo'ston ichinda, gullar orasida bir necha zarif (nozikfahm) olimlar bilan o'turub, insho ilminda bahs qilib, abyoti g'arib (ajoyib) va ash'ori ajib (qiziq) o'qudum esa, ul olimlarning ulusi aruz ilminda bir mushkul baytning taqattu'in savol etti. Filhol (darrov, tezda) javobin eshitib aytti: "Ey adibi g'arib, senga bir muvofiq nasihatim bor, qabul qilsang, xayr bo'lg'ay". Ayttim: "Buyuring". Aytti: "Shayx Sa'diy "Guliston" in turkiy tilga tarjima qilsang, bir sohib davlat er otina, misroi yodgoring jahonda qolsun deb". Ul azizning muborak nafasini qabul etib ayttim: "...ammo quvvatim zaif turur aning qaviy (kuchli, quvvatli) ma'nilarina". Men dag'i Tangriga tavakkul qilib (o'zimni topslarib), himmat belin rag'bat eli bilan bog'lab, boshladim, tamom bo'lg'ay deb. Ammo bu kitob oti ul sababdin "Guliston" bo'ldikim, ajoyib hikoyot va g'aroyib nasoih va anvo'i latoif bilan murattab va muzayyan bo'lub turur. Bu voqea milodiy 1390-1391-yillarda sodir bo'lgan. Parchadan anglashiladiki, Sayfi Saroyi adabiyot ilmida ham ancha mashhur bo'lib, olimlarning peshqadami bo'lgan. Shu bilan birga, u iste'dodli ijodkor bo'lishi bilan bir qatorda, yuksak didli tarjimon ham

bo'lgani mazkur parchadan anglashilib turibdi. Haqiqatan, "Gulistoni bit-turkiy"ni ham Sayfi Saroyi, xuddi Sa'diyning "Guliston"i singari, ajoyib hikoyatlar, qit'alar, fardlar bilan bezadi."Gulistoni bit-turkiy tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari. Sa'diyning "Guliston"i bilan Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy" asari solishtirilganda, ular o'rtasidagi ayrim farqlar darrov ko'zga tashlanadi. Jumladan, Sa'diy "Guliston"ining "Muqaddima"si Oллоhga hamd, Sheroz hukmdori "Muzaffariddin ibn Zangi ibn Sa'd ibn Abu Bakr" madhi, "Guliston" kitobining sababi ta'lifi bayoni" tarkibiga kirgan amiri Kabir, Abu Bakr bin Abu Nasr vasfi, "xizmati vazirda voqye' bo'lg'on qusurning uzri va ixtiyori uzlatning sababi bayoni"ni qamrab oladi. Sayfi Saroyi kitobxonni, o'z davrining ijtimoiy-siyosiy jarayonini, Oltin O'rda davlatidagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarni nazarda tutadi va asari debochasida o'zgarishlar qiladi. Jumladan, u asar debochasida yuqorida biz keltirgan Sa'diy "Guliston"ining tarjima qilinishiga oid taklifni qabul qilgani haqida parchadan keyin oltmish misradan iborat masnaviyini keltiradi. Bu masnaviy mazmunan qasidaga o'xshaydi. Sayfi Saroyi bu she'rida "Guliston" asarining jamiki fazilatlarini bayon qiladi: bu asarda g'aroyibotlar mavjudligi, bunday g'aroyibotlar hatto "Xusrav va Shirin"da ham yo'q ekani (chamasi, u Qutbning "Xusrav va Shirin" asarini nazarda tutgan), asarning "latoif bog'i", "ma'ni gulistoni" sifatlarga boy ekanini ta'riflaydi. Shundan keyin o'tmishdagi nomdor hukmdorlarning avlodlar osha abadiy qolganiga sabab ularning himmatliliklaridir, degan o'gitni beradi. Bundan tashqari, Sayfi Saroyining zamondosh shoirlariga she'riy javoblari. Sayfi Saroyi o'z zamondoshlaridan Mavlono Qozi Muhsin, Mavlono Is'hoq, Mavlono Imod Mavlaviy, Ahmad Xoja as-Saroyi, Abdul Majid, To'g'li Xoja, Hasan o'g'li, Xorazmiy kabi shoirlarning she'rlariga bir vaznda va bir xil qofiyada javob aytgan. Sayfi Saroyining va o'sha shoirlarning g'azallari shundan dalolat beradiki, Misrdagi turkiy xalqlar adabiyotida g'azal janri Xuroson va Movarounnahr shoirlarining g'azalchiligi darajasida yuqori saviyada yozilgan. Bu shoirlarning aksariyati taxallusidan ham ma'lumki, ular Oltin O'rdadan, O'rta Osiyodan borib, o'sha yerda o'rnashib qolganlar va Oltin O'rdadagi adabiy an'anani, xususan, g'azalchilikni davom ettirganlar. Ayniqsa, Sayfi Saroyining g'azallarida so'z o'yinidan foydalanish mahorati bunga bir dalildir. Sayfi Saroyi bilan hamnafas va hamfikir bo'lgan shoirlardan biri Xorazmiydir. Xorazmiyning "Soldi niqob chehradin ul turki hovariy" misrasi bilan boshlanadigan g'azali bor va Sayfi Saroyi bu g'azalga Xorazmiy vaznida va qofiyasida g'azal bitgan. Sayfi Saroyi XIV asr o'zbek dunyoviy adabiyoti tarixida eng avvalo, zabardast shoir sifatida qadrlidir. Uning bizgacha yetib kelgan tarqoq nazmiy merosi o'z muallifining yaxshigina salohiyatidan xabar beradi. Sayfi Saroyi o'z zamonasining farzandi. Ammo donishmand va ilg'or qarashlar egasi, dunyo va uning voqealariga aql ko'zi bilan qarashga, uni kuzatish, baholash, munosabat bildirishga qodir kishi edi. Shuning uchun uning adabiy merosi o'ziga zamondosh bo'lgan tab' sohiblari asarlaridan tubdan farq qilmaydi. Balki o'shalarga hamohanglik, yaqinlik kayfiyati ustun turadi. Sayfi Saroyi g'azaliyotining yetakchi mavzusini ishq-muhabbat talqini tashkil qiladi. Shu bosh va an'anaviy mavzuda asarlar yaratish jarayonida u o'zi yashayotgan zamon illatlarini turli ramz va ishoralar yordamida aks ettirib qoldirishga erishadi. Shuningdek, olijanob insoniy fazilatlarini ulug'lash, dunyo va uning ne'matlaridan bahramand bo'lishga undash, umrni zoe o'tkazmaslik, ilm-fan, kasb-hunar o'rganishga da'vat singari ilg'or g'oyalar targ'ibi ham Sayfi Saroyi ma'naviy merosining mag'z-mag'ziga singib ketgan. Shoir she'rlarining yetakchi qahramoni oshiq. U o'z yorining samimiy shaydosi va hamdamidir. Oshiq uchun dunyoda yagona buyuk mavjudot bor, u ham bo'lsa mahbubadir. Uning nazdi va nazarida biror-

bir kishi shu mahjubaga teng kelolmaydi. Mana, o'sha sodiq qahramon-oshiqning bu boradagi xulosasi:

Ul yuzi oykim, jahoniydur,
Bu zamon xo'blarining xonidur.
Yosamin tan, qomati sarvi ravon,
Zalfi jannat bog'ining rayhonidur.
Kirpugining o'qina jonlar nishon,
Qoshi yosining jahon qurbonidur.
Shams aning har kun yoqasindan tug'ar,
Ul sababdin bu jahon nuroniydur.

Jahonning fayz-u shukuhi, ko'rki va tarovati ham o'sha oy yuzli, sarv qomat, zulfi rayhon, kiprigi o'q yor borligi uchun. Aks holda bularning hammasi, ya'ni dunyoning borligi mazmunsizdir. Sayfi Saroyi qalamidan ruh olib, qizg'in harakat qiluvchi oshiqning atrof-muhit, uning voqea-hodisalariga nigohi mana shunday. Shu tufayli Sayfi Saroyining nomi tabarruk, asarlari tildan tushmay keladi. Shu jihatdan shoirning serqirra ijodkor deb baholasak mubolag'a bo'lmaydi, bu ijodkor o'zining harakatchanligi bilan hozirgi kunda ham ko'plab insonlarga ruh bag'ishlamoqda. Uning asarlarini mutolaa qilgan inson hayotga muhabbati oshadi, ishonch hissi ortadi, har bir narsadan bahramand bo'lishga intiladi. Sayfi Saroyi faqatgina o'tgan asrdagi insonlarni uyg'otishga emas, balki hozirgi zamonda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Sayfi Saroyi XIV asr o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalardan biri bo'lib, o'zining boy va serqirra ijodi bilan adabiyot tarixida muhim o'rin egallaydi. U nafaqat iste'dodli shoir, balki yetuk tarjimon sifatida ham Sharq adabiy merosini turkiy tilga olib kirishda katta xizmat qilgan. Shoirning hayoti Movarounnahr, Oltin O'rda va Misr kabi hududlar bilan bog'liq bo'lib, bu uning dunyoqarashi va ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Sayfi Saroyining bizgacha yetib kelgan asarlari, jumladan g'azallar, qasida, ruboiylar hamda “Suhayl va Guldursun” dostoni uning yuksak badiiy mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, uning “Guliston bit-turkiy” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asar Sadiy Sherozyning “Guliston” asari asosida yaratilgan bo'lib, oddiy tarjima emas, balki ijodiy qayta ishlangan, milliy ruh bilan boyitilgan mukammal badiiy asardir. Unda hikoyatlar, nasihatlar va hikmatli fikrlar xalqchil va sodda tilda bayon etilib, keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan. Shoir ijodining yana bir muhim jihati uning badiiy uslubi va til boyligidadir. U turkiy til imkoniyatlaridan unumli foydalanib, arab va fors so'zlarini imkon qadar kamaytirishga intilgan, shu orqali asarlarini xalq tiliga yaqinlashtirgan. Uning asarlarida epik va lirik unsurlar uyg'unlashib, obrazlar tizimi, syujet qurilishi hamda badiiy tasvir vositalari yuqori saviyada namoyon bo'ladi. Umuman olganda, Sayfi Saroyi o'z davrining ilg'or fikrli, keng dunyoqarashli ijodkori sifatida nafaqat o'zbek, balki butun turkiy adabiyot rivojiga katta hissa qo'shgan. Uning asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, adabiy meros sifatida chuqur o'rganilishi zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

2. Nasimxon Rahmonov O'zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O'quv qo'llanma. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017.
3. Natal Mallayev O'zbek adabiyoti tarixi. “O'qituvchi” nashriyoti, 1965.